



**BANK TARMOQLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA  
BOSHQARUV USULLARIDAN FOYDALANISH**

**Olqarova Zarina Nosir qizi**  
*Toshkent Moliya instituti talabasi*  
*Ilmiy rahbar: Boyev Bekzod Jo'raxon o'g'li*

**Annotatsiya:** *Jahon iqtisodiy munosabatlari sharoitida bank tarmoqlarining raqobatbardoshligini ta'minlashda boshqaruv usullaridan foydalanish talab etiladi. Bu esa zamonaliv menejment tushunchalaridan samarali foydalanish asosida bank xodimlarini boshqarish tizimini takomillashtirish kabi muhim vazifalarni kun tartibiga qo'ymoqda.*

**Kalit so'zlar:** *menejment, xodimlarni boshqarish, bozor iqtisodiyoti munosabatlari.*

**Аннотация:** В условиях мировых экономических отношений требуется использование управленческих подходов в обеспечении конкурентоспособности банковских отраслей. Это ставит на повестку дня такие важные задачи, как совершенствование управления персоналом банка на основе эффективного использования современных концепций управления.

**Ключевые слова:** менеджмент, управление персоналом, отношения рыночной экономики.

**Abstract:** In the conditions of global economic relations, it is necessary to use managerial approaches to ensure the competitiveness of banking industries. This puts on the agenda such important tasks as improving the bank's personnel management based on the effective use of modern management concepts.

**Keywords:** Management, Personnel management, market economy relations.

## **KIRISH**

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida bank personalini boshqarish dolzarb masalalardan biri bo'lib, ijtimoiy va iqtisodiy mohiyati jihatidan o'z o'rniga ega. Personal boshqaruvi tizimini bozor iqtisodiyoti sharoitida shakllantirish va takomillashtirish yangi yo'nalish hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti talablari asosida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda mavjud investitsiya, kapital, moddiy va tabiiy resurslardan tejamli va samarali foydalanishda personal boshqaruvi asosiy o'rinni egallaydi. Personalni boshqarish tizimining rivojlanishi o'z tarixiy rivojlanishiga ega. Sinfiy iqtisodiy nazariya vakillaridan «Menejmentning otasi» fayol ma'muriy boshqaruv maktabining asosiy vazifalari boshqaruvning universal, ya'ni hamma tomonlama mos keladigan va yuqori darajada korxona samaradorligini ta'minlashi lozim, deb hisoblagan.

## **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Fayol boshqaruv nazariyasiga universal jarayon deb qaragan. Ushbu jarayonni ishlab chiqarishni rejalashtirish va uni tashkil etish bilan bog'liq, deb hisoblashi uning boshqaruv nazariyasini rivojlantirishga qo'shgan asosiy hissasi deyishi mumkin. Fayol birinchi bo'lib mehnat taqsimotini ko'rib chiqib, uni ixtisoslashtirishni tabiiy hol deb qaragan. Demak,



bank personali boshqaruvini ichki va tashqi ijtimoiy-iqtisodiy holatlardan kelib chiqqan holda takomillashtirib

borish zarur. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank xizmat ko'rsatish personali mehnatining samaradorligini ta'minlashda mehnat taqsimoti, personalning ma'lum xizmat ko'rsatish yo'nalishida ixtisoslashuvi, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifat darajasiga ma'naviy va huquqiy darajada javobgar bo'lishi va intizom bo'yicha qo'yilgan talablarga javob berishi kerak.

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida moddiy va tabiiy resurslardan tejamli va samarali foydalanishda personal boshqaruvining ahamiyati, uning faoliyatini boshqarishda bir qator elementlar asosiy o'rinni egallaydi (1-rasm).

1-rasm. Bank tizimida personal boshqaruvini rejalashtirish va uni tashkil etishning uzviy bogiliqligi

Buning asosiy sababi bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir huquqiy va jismoniy sub'yeiktning bank personali xizmatlaridan foydalanishni samarali darajada tashkil etishi banklar foyda olishini ta'minlashidir.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Personal boshqaruvi bo'yicha xorijiy va o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ammo iqtisodchi olimlar o'rtasida personal boshqaruviga uning mohiyati bo'yicha yagona umumlashgan ta'rif va ilmiy xulosalar yo'q, desak bo'ladi. Jumladan, iqtisodchi olimlardan O.Tid va N.Matglef «Tashkilot faoliyatini kadrlar, ma'muriy boshqaruv rejalashtirish, nazorat, boshqaruv va muvofiqlashtirishni, tashkilotning belgilangan maqsad erishishini uning barcha a'zolari manfaatdorligi va harakati qiyinchiligi minimumi bilan

erishishini ta'minlaydi» deb ta'rif berganlar. Yana bir guruh olimlar «Kadrlarni boshqarish, inson omili faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish korxona boshqaruvining asosiy elementi hisoblanadi», deb ta'riflaydilar.

### **MUHOKAMA**

Ayrim iqtisodchilar personalni boshqarish uzlusiz jarayon sifatida namoyon bo'ladi, u ularning mehnat qilish sabablarini, undan yuqori darajada foyda olish, demak, korxonalar faoliyatida pirovard yuksak natijalar qo'lga kiritilganligini bildiradi, deb ta'riflaydilar. «Personal boshqaruvi asosi o'sib borayotgan shaxsning roli, uning mehnat faoliyatini shakllantirish va korxona belgilangan vazifalarini oshirishga yo'naltirishdan iborat».

«Personal boshqaruvi hozirgi davrda tanilgan inson resurslari boshqaruvi kontseptsiyasi va uslubi boshqaruvchilar tomonidan personal bilan ishlashda foydalaniladi».

Ammo amaliy jihatdan har qanday korxonalarining ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va xo'jalik yuritish tizimida asosiy e'tibor personali boshqaruv tizimiga beriladi. Boshqaruv faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqqan jamoa xodimlari personal boshqaruv personali shaklida ifodalanadi.

Personal boshqaruvi mahsus soha faoliyati bo'lib, inson omili bilan bog'liq. Bunga asosiy sabab:



- ular o'z intellektlari asosida mexanik tarzda əmas, balki o'ylagan holda emotsional tashqi muhitga ta'sir qilishlari;
- ular doimiy ravishda rivojlanib boradi. O'z mehnat faoliyatida mehnat qilish darajalari kasbiy mahoratlarini doimiy oshirib borishlari;
- insonning bank tizimi muassasalari bilan bo'lgan mehnat qilish va iqtisodiy munosabatlari uzoq davrni o'z ichiga olishi;
- insonlar bank tizimi muassasalariga tushungan holda, ongli ravishda mehnat qilish maqsadida kelishlari hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan sabablarni I.A.Ogonesyan «Ishlab chiqarish xodimlar faoliyatini samarali tashkil etishga asos bo'ladi», deb hisoblaydi.

#### **XULOSA**

Bir guruh iqtisodchilar personal boshqaruvi bu korxona darajasida ishchi kuchlaridan samarali foydalanish uchun zarur sharoitni yaratish uchun o'zaro bog'liq bo'lgan tashkiliy iqtisodiy va ijtimoiy sharoitdir, deb hisoblaydilar.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. КАРИМОВ У. ЕНГИЛ САНОАТ КОРХОНАЛАРИ РА^ОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШ БУЙИЧА МАРКЕТИНГ СТРАТЕГИЯЛАРИ. СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука, 78-80.
2. Каримов, У. (2022). ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БОШ^АРУВ ^АРОРЛАРИНИНГ УРНИ ВА А^АМИЯТИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(Special Issue 2), 102-109.
3. Badalovich, T. O. (2022). Legal and institutional basis of development of transport services and transport infrastructure during the coronavirus pandemic. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(09), 55-61.
4. Badalovich, T. O. (2022). Indicators representing the level of provision of transport services and infrastructure of the region. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(09), 123-127.
5. Турсунов, О. Б. (2022). Иктисодиётни эркинлаштириш даврида транспорт хизматлари ва инфратузилмасининг ривожланиш тенденциялари ва худудий хусусиятлари. Ta'limfidoyilar, 8, 196-204.
6. Urinov, A. G. A. (2003). ECONOMIC REFORMS IN UZBEKISTAN: SPECIFIC FEATURES, RESULTS AND PROBLEMS. Eurasian Vision: Felicitation Volume on the 70th Birthday of Prof. Devendra Kaushik, 187.
7. Хамидидов, Б. С., & Уринов, А. А. (2020). Механизм государственно-частного партнерства и привлечение инвестиций. In Эффективность сферы товарного обращения и труда (pp. 140-144).



8. Хабибиддинов, Х. И., & Уринов, А. А. (2020). Зарубежный опыт механизма государственно-частного партнерства для привлечения инвестиций. In Эффективность сферы товарного обращения и труда (pp. 126-129).
9. Ahmadjanovich, U. A. (2021). The Main Ways To Improve The Efficiency Of Investment Activity For The Development Of Socio-Economic Processes. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 24(2), 197-205.
10. Ганиев, Б. (2021). Особенности предпринимательской деятельности в условиях развития гражданского общества в Узбекистане. Общество и инновации, 2(4/S), 683-692.
11. Ганиев, Б. С. (2015). УЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ЩШТОДИЙ ВА ХУЎУЙ ЖИХАТЛАРИ. ILMUYXABARNOMA, 49.
12. Ганиев, Б. С. (2016). УЗБЕКИСТОНДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УЗИГА ХОС ЖИХДЛАРИ. ILMUY XABARNOMA, 51.
13. Tuhtarova, I. (2020). SOME ASPECTS OF USING EXAMPLES OF FICTION IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(6), 409-415.
14. Saminjonov, B. (2021). THE ROLE OF TEACHING FINE ARTS AND DRAWING IN THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE AREAS. Студенческий вестник, (11-4), 6-8.